

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**

**SAMARQAND VILOYAT XALQ TA'LIM XODIMLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH HUDUDIIY
MARKAZI**

ERGASHEVA G.A.

**O'QUVCHILARGA TARBIYA BERISHDA HAMKORLIKDA O'QITISH
TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH**

Samarqand - 2020

Ergasheva G - SamVXTXQTMOHM Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrası o'qituvchisi "O'quvchilarga tarbiya berishda hamkorlikda o'qitish ta'lim texnologiyasidan foydalanish". SamVXTXQTMOHM, 2020-yil, 28 bet.

Muharrir:

J.Eshquvvatov - SamDU huzuridagi XTXQTMOHM Ilg'or tajriba va xalqaro hamkorlik ilmiy-axborot tadqiqotlar bo'limi boshlig'i

Taqrizchilar:

Z.Qurbonov- SamDU Boshlang 'ich ta'lim_kafedra dotsenti f.f nomzodi

T.Tolipova - SamVXTXQTMOHM Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedras o'qituvchisi

Ushbu uslubiy Pedagogik faoliyatni texnologiyalashtirish – ijtimoiy zarurat ekanligi, pedagogik texnologiyalar fanining maqsad va vazifalari, o'quvchilarga tarbiya berishda hamkorlikda o'qitish ta'lim texnologiyasidan foydalanish samaradorligi o`z aksini topgan

Uslubiy ko`rsatma hududiy markaz Ilmiy-uslubiy kengashining 2020 yil ___ iyundagi ___ sonli yig'ilish qarori bilan nashr etishga ruxsat berilgan.

KIRISH

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Ma'lumki, uzluksiz va uzviylik ta'lim tizimida ortiqcha takroriylikka chek qo'yib, avvalo, jamiyatning ma'naviy va intellektual salohiyatini kengaytiradi, qolaversa, davlatning ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyotini takomillashtirish omili sifatida ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o'quv-tarbiya jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarning tez almashinuvi va takomillashuvi jarayonida har bir inson o'z kasbiy tayyorgarligini, mahoratini kuchaytirish imkoniyati yaratiladi.

Ta'limning barcha bosqichlariga oid umumiy pedagogik va didaktik talab o'quvchining bilim, tasavvur va ko'nikmalari asosida mustaqil ishlash samaradorligini takomillashtirish, ilmiy fikrlashga, o'quv faniga qiziqishini kuchaytirish, kasbiy bilimlarini chuqurlashtirish, nazariy va amaliy mashg'ulot maboynda faolligini oshirishdan iboratdir. Shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatib kelingan edi. Bunday usul o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, tashabbukorlikni so'ndirir va o'quvchi kompetensiyasini shakllantirishga to'sqinlik qilib kelgan.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublardan foydalanib, ta'limni samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundankunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan dars mashg'ulotlari o'quvchilar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs

va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda o'quvchi kompetensiyasi shakllanadi. Bunday o'quv jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi.

Maktabda tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonida o'rganiladigan mavzuning mazmuniga muvofiq pedagogik texnologiyalarni tanlash, ulardan o'z o'rnida va o'qitish maqsadlariga erishish nazarda tutilgan holda foydalanish o'qituvchilardan pedagogik texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlari, mazkur texnologiyalar ta'lim mazmuniga qo'yadigan talablari, ya'ni o'rganiladigan mavzuning mantiqiy yo'nalishini e'tiborga olishni talab qiladi. Shuni qayd etish kerakki, o'rganiladigan mavzuning mazmuniga ko'ra pedagogik texnologiyalarni tanlash o'qituvchidan yuqori darajadagi bilim va pedagogik mahoratni talab etadi.

Hamkorlikda o'qitish g'oyasi jahonning rivojlangan mamlakatlaridagi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uzoq yillar davomida ta'lim-tarbiya jarayonida muvaffaqiyatli qo'llanilib kelinmoqda. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasidan asosan o'quvchilarda DTS va fan dasturida qayd etilgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish va ko'proq o'quvchilar tomonidan o'quv materiallarini qayta ishlash orqali mustaqil va ijodiy fikr yuritish bilan bir qatorda, o'quvchilarni kompetensiyalarini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Hamkorlikda o'qitishning asosiy g'oyasi dars jarayonida o'rganilishi lozim bo'lgan mavzu yuzasidan tuzilgan o'quv topshiriqlarini nafaqat birgalikda bajarish, balki hamkorlikda tahsil olish, ular o'rtasida ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan o'zaro yordam, qo'llab-quvvatlashni o'rganishdir. Hamkorlikda o'qitish har bir o'quvchini kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, shaxs sifatida har bir o'quvchida shaxsiy qadriyatni tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, ta'lim olishda mas'uliyat hissini shakllantirishni ko'zda tutadi.

Pedagogik faoliyatni texnologiyalashtirish – ijtimoiy zarurat ekanligi

Jamiyat taraqqiyoti hozirgi davrda ijtimoiy hayotning barcha sohalarini texnologiyalashtirishni taqazo qilmoqda. Ayniqsa pedagogik faoliyatni texnologiyalashtirish har qachongidan ham zaruratga aylanmoqda. Bu zaruriyat quyidagilar bilan izohlanmoqda:

- Birinchidan, jamiyatimizning taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan o‘rin olishni hamda aholi ta‘limini jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida;

- Ikkinchidan, o‘qituvchi faoliyatiga faqatgina o‘quv jarayonining tashkilotchisi emas, balki nufuzli bilimlar manbai sifatida qaralayotganligi;

- Uchinchidan, fan-texnika taraqqiyotining o‘ta rivojlanganligi natijasida axborotlarning keskin ko‘payib borayotganligi va ularni yoshlarga etkazish uchun vaqtning chegaralanganligi;

- To‘rtinchidan, kishilik jamiyati o‘z taraqqiyotining shu kundagi bosqichida nazariy va emperik bilimlarga asoslangan texnik tafakkurga o‘tib borayotganligi;

- Beshinchidan, yoshlarni hayotga mukammal tayyorlash talabi ularga eng ilg‘or bilim berish usuli hisoblangan ob‘ektiv borliqqa tizimli yondashuv tamoyilidan foydalanishni talab qilayotganligi.

Pedagogik faoliyatni texnologiyalashtirish yuqorida sanab o‘tilgan beshta shartlarning barcha talablariga javob beradigan ta‘limiy tadbiridir.

Pedagogik faoliyatni texnologiyalashtirish pedagogik tizim doirasida bajariladigan amallardan iborat.

Har qanday jamiyatda pedagogik tizimning maqsadi jamiyatning shaxsning shakllantirishga qo‘ygan talablari asosida belgilanadi va jamiyat talablari asosida tizim ham o‘zgarish mumkin. Juda ko‘p tadqiqotlarga asoslangan holda V.P.Bespalko pedagogik tizimni o‘zaro bog‘liq 6 ta elementini ko‘rsatadi.

Bular:

1. O'quvchi;
2. Ta'lim-tarbiyaning maqsadi;
3. Mazmuni;
4. Didaktik jarayoni;
5. O'qituvchi yoki texnik vositalari;
6. Ta'lim-tarbiyaning tashkiliy shakllari;

Pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayoni unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarni shakllantiradi.

Innovasion texnologiyada ta'lim jarayonining maqsadini belgilash muhim bo'lib, u rejalashtirilgan natijalarni kafolatlashi lozim.

Bugungi kunda pedagogika sohasidagi innavacion texnologiyalarni kengroq va chuqurroq o'zlashtirish, ularni o'z mintaqamizga mos holda qayta ishlab chiqish zarur muammoga aylandi. Bu muammoni hal etish hozirgi kungacha shakllanib kelgan ta'lim-tarbiya sohasida- gi nazariy va amaliy tajribalarni o'rganishni taqozo etadi.

Pedagogik texnologiyaning ta'lim sohasidagi mexanizmlari quyidagilardir:

- ta'lim muassasalarida ijodiy muhit yaratish, ilmiy pedagogik xodimlar orasida tashabbuskorlik va yangilikka bo'lgan qiziqishni oshirish;

- ta'lim sohasidagi ijodkorlikni, yangiliklarni qabul qilish va keng yoyish uchun ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarni yaratish;

- izlanuvchanlik faoliyatini rag'batlantirish, uni har tomonlama qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini ishga solish;

- nisbatan istiqbolli yangiliklarni, samarali loyihalarni amalda harakatdagi ta'lim tizimiga joriy etish, to'plangan yangilik va tajribalarni doimiy harakatdagi umumta'lim tizimi rejimiga singdirish.

Shu bois mamlakatimizda ta'lim tizimini takomillashtirish va uni hozirgi zamon talablariga moslashtirish, zamonaviy informatsion texnologiyalarga asoslangan jahon andozalari darajasidagi tizimni yaratish umumdavlat siyosatining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanmoqda. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da uzluksiz ta'lim tizimini isloh etish asosida, jamiyatning rivojlanishi talablarini hisobga olgan holda, yetuk mutaxassislarni tayyorlash, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash masalalariga katta e'tibor berilgan. Bu vazifalarni hal qilish uchun esa birinchi navbatda, o'quv jarayonini tubdan isloh qilish, unga jahonning rivojlangan davlatlarida keng qo'llanilayotgan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni izchillik bilan tatbiq etish zarur.¹

O'quv jarayonining har qanday qismi uning loyihalashiga texnologik jihatdan yondoshilganda quyidagi asosiy bosqichlarda ega bo'ladi:

- Ta'lim bosqichining umumiy maqsadini belgilab olishi;
- Umumiy maqsadni shakllantirishdan uni ixtisoslashtirishga o'tish;
- O'quvchilarning bilim darajasini tashxis qilish;

Bosqichlar ketma-ketligi tavsifi o'qituvchi harakatlarining davriy takrorlanuvchi ketma-ketligi bo'lib, u ko'p marotaba mos ravishda maqsadlar, aniq nazorat usullari va ta'lim jarayoni turlari bilan takrorlanib, ta'lim jarayonini nihoyasiga etkazadi.

Hozirgi sharoitda innovatsion faollik ta'lim mazmunining ham mazmun hamda tashkiliy-tuzilmaviy jihatdan qayta ishlab chiqish bilan bevosita bog'liq. Bu jarayonlarning asosi bo'lib oxirgi uch, o'n yillikda pedagogik ta'lim nazariyasini tezkor ishlab chiqilishi bo'ldi (A.A.Abdulina, E.V.Bondarevskaya, V.I.Zagvyazinskiy, V.S.Ilin, N.M.Kan-Kalik, V.A.Slastenin va b.q).

Pedagogik ta'lim rivojlanishining zamonaviy innovatsion yo'nalishlari ichida xususiy innovatsion nazariyani, shaxsiy (xususiy)

1. Karimov I. A "Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir" Toshkent "O'zbekiston" 2010y 74-75 bet

yoʻnalishli taʼlim sohasidagi ishlanmalarni, taʼlimni tashkiliy-tuzilmaviy modelini, taʼlimni koʻp darajali tizimini rivojlantirishni ajratib koʻrsatish mumkin.

Oxirgi oʻn yillikda pedagogik innovatsiyani nazariy asoslari ishlab chiqilyapti. Ayniqsa, K.Anglovskiy M.V. Klarin, V.ya.Lyaudis, M.N.Potashnik, S.D.Polyakov, T.I.Shamova, O.T.Xomeriki, N.R.Yusupbekova, V.A.Slastenin va boshqalarning ishlarida pedagogik professionalizmni rivojlantirishning oʻziga xos tomonlarini aniqlash va taʼlim tizimida oʻqitish jarayonida boʻlgʻusi oʻqituvchining innovatsion imkoniyatlarini rivojlantirish olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlarning bahs mavzusi boʻlib qolmoqda.

Shaxsiy yoʻnalishli taʼlim konsepsiyasi madaniy-tarixiy va faoliyatli yondashuvga asoslanadi (L.S.Vigotskiy, A.A.Leontev, D.B.Elkonin, E.V.Ilenko, V.V.Davidov, G.P.Shedrovitskiy, A.G.Asmolov) va bugungi kunda umummetodologik jihatdan V.V.Serikov, V.G.Sukerman, V.P.Zinchenko, L.N.Kulikovlarning ishlari alohida ahamiyatga molik. Tashkiliy-boshqaruv darajasida ushbu muammo bilan M.N.Kostikov, V.A.Boltovlar shugʻullangan. Ushbu konsepsiyaning etakchi gʻoyalaridan biri pedagogik taʼlimda predmetli tayyorlashning roli va oʻrnini anglab etish, predmetlarni oʻzlashtirish bilan asosiy eʼtibor oʻquvchilarni rivojlantirish vositasi sifatida predmetni oʻqitishga asosiy maqsad qaratiladi.

Ushbu konsepsiyaning boshqa bir gʻoyasi oʻquv shakllarini konstruksiyalash bilan bogʻliq boʻlib, bunda taʼlim jarayoni yagona jarayon sifatida qaraladi, (xususiyl oʻquv faoliyati) unda materialni anglab etish va tadqiqot ishi birgalikda boʻlajak oʻqituvchining shaxsiy pedagogik pozitsiyasi boʻlib shakllanadi. Mazkur yondashuvda asosiy talablar quyidagi izchillikda: shaxs oʻzi uchun va boshqalar uchun ham asosiy boʻylik boʻlib, bunda taʼlim-taʼlim tizimidagi yaxlit pedagogik jarayon sifatida yoʻnaltirilgan shaxsni oʻzgartirishga qaratilgan jarayondir.

Bunday taʼlimning bosh natijasi egallangan bilim, koʻnikma va malakalar emas, balki shaxs oʻsishiga qobiliyat, empatik oʻzaro

munosabatlar va shaxsiy samaradorlikka qaratilgan yuqori ijtimoiy faollik tushuniladi. Hayotiy kelajakni amalga oshirish uchun inson o'z faoliyatini ongli tarzda qayta yo'lga qo'yadi va buning uchun ta'lim jarayoni imkoniyatlaridan foydalanadi. Ayniqsa, bu jarayon o'quvchi yoshi davri, yoshlik davri ayni ushbu jarayonni yo'lga qo'yish uchun muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu konsepsiyaning keyingi g'oyasi pedagogik sub'ektivlikni rivojlanishi bilan bog'liq: o'quvchi "o'rganuvchi", "o'quvchi", "o'qitadigan" pozitsiya orqali o'tadi.²

Agar ta'lim muassasasida "o'qish joyi va vaqti emas, balki yigit va qizlarni katta bo'lish maydoni" (D.B.Elkonin) deb qaralsa, u holda ushbu ta'lim muassasasidagi pedagogik jarayon uni amalga oshirish orqali ta'lim olayotgan o'quvchining o'z-o'zini rivojlantirishini faollashtiruvchi, hech bir narsa bilan qiyoslab bo'lmaydigan pedagogik jarayonni ijodiy-o'zini qayta qurish sub'ekti ham o'quvchi, ham o'qituvchi uchun imkoniyatlar hisoblanadi. O'qituvchi faoliyati ham o'zgaradi: "usta" ishlari orqali bilimlarini pedagogik texnologiya asosida etkazishdan, o'quvchilarda pedagogik qobiliyatni shakllantirish maqsadida birgalikdagi faoliyatni tashkil etuvchi "maslahatchi" pozitsiyada o'quvchilar bilan birgalikda uning kelajak kasbiy faoliyatini loyihalovchiga aylanadi. SHunga ko'ra integrativ ta'lim texnologiyalarini yo'lga qo'yish dolzarb bo'lib qoladi. Ushbu masalada ta'limni loyihalash bilan shug'ullanuvchi muammolar instituti bugungi kundagi dolzarb masalada etakchilik qilmog'i zarur.

Pedagogik ta'lim amalga oshirishining tashkiliy-tuzilmaviy modeli haqida alohida to'xtalish kerakligi e'tiborga loyiq. Bular: kichik darajadagi, ko'p bosqichli va ko'p darajadagi modellarga qaratilishidan iborat. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan har bir model mustaqil yaxlit ta'lim sifatida qaralib, ular o'zlarining jilg'alariga ega bo'lib, aniq ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy holatlar bilan bevosita bog'liq.

Abduvalidov Ye. Yangi pedagogik texnologiya muammolari. \ \ Til va adabiyot ta'limi, 2001, №1.

“Pedagogik texnologiyalar fanining maqsad va vazifalari”

- litsyey va kollejlarning bo'lajak o'qituvchilarining zamonaviy pedagogik texnologiyalar nazariy asoslari bilimlari bilan qurollantirish;

- yangi pedagogik darajada pedagogik jarayonlarni samarali tashkil etishlari uchun zarur mahoratlarga ega bo'lishlari;

- zamonaviy pedagogik texnologiyalar, g'oyalar maktablar, yo'nalishlar, keng turlarida yo'l topa bilish mahorati;

- pedagogik faoliyatni ijodiy va metodik to'g'ri bajarishga tayyorlikni shakllantirish;

- mustaqil ishlash, mustaqil bilim olish, o'zini tarbiyalash va o'zini mutaxassislik darajasini doimiy oshirib borishga intilishni faollashtirish.

Pedagogik texnologiyalar tarixi, ta'rifi, tasnifi

Pedagogik texnologiya tushunchasi keng ko'lamli, serqirra tushuncha bo'lib, u ta'lim-tarbiya amaliyotini rivojlantirish ehtiyojlari asosida kelib chiqqan va hozirda pedagogika, psixologiya fanlarida o'z o'rniga ega.

Pedagogik texnologiya tushunchasi XX asrda paydo bo'lib, quyidagi rivojlanish bosqichlaridan o'tib kelmoqda.

1940- yillardan 50-yillar o'rtasigacha “Ta’limda texnologiya” deb qo'llanilib kelgan. O'quv jarayonida audiovisual texnika vositalaridan foydalanishni ifoda qilgan.

50-yillar o'rtasidan 60-yillargacha “Ta’lim texnologiyasi” ifodasi qo'llanilib, bunda programmashtirilgan ta'lim nazarda tutilgan.

70-yillarda “Pedagogik texnologiya” ifodasi qo'llanilib, u avvaldan loyihalashtirilgan va aniq belgilangan maqsadlarga erishishni kafolatlovchi o'quv jarayonini bildirgan.

80- yillarning boshidan Pedagogik texnologiya deb ta'limning komp'yuterli va axborot texnologiyalarini yaratishga aytilgan.

Pedagogik texnologiya- Barkamol insonni shakllantirish faoliyati.

Pedagogik texnologiya- ta'lim metodlari, usullari, yo'llari hamda tarbiyaviy vositalar yug'indisi; u pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy vositalari majmuidir.

Pedagogik texnologiya- insonga (ta'lim-tarbiya oluvchiga) oldindan belgilangan maqsad bo'yicha ta'sir o'tkazish faoliyatidan iborat.

Pedagogik texnologiya o'quvchini mustaqil o'qishga, bilim olishga fikrlashga o'rgatishni kafolatlaydigan jarayondar.

- **Metod** - biror harakatni amalga oshirish **yo'li, usuli** yoki **ko'rinishidan** iborat.

- Bunda harakatni amalga oshirish **yo'li** deb, bajarilishi talab qilinayotgan faoliyat uchun qo'llash mumkin bo'lgan bir nechta yo'ldan oldindan ko'zda tutilgan maqsadga muvofiq ravishda tanlangan yo'lga aytiladi. Masalan, savod o'rgatish yo'llari: oilada o'rgatish, maktabda o'rgatish, bog'chada o'rgatish, o'qituvchi yordamida o'rgatish, kitoblar, kompyuter, ko'rgazma qurollar va boshqalar vositasida o'rgatish. Shunga o'xshash sanoqni, arifmetik amallarni o'rgatishda ham yuqoridagiga o'xshash yo'llardan foydalanish mumkin. Shu yo'llardan foydalanib harakatni amalga oshirishda turli usullar qo'llaniladi.

-

Zamonaviy pedagogik texnologiyaning vazifasi:

• bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga pedagogik texnologiya, rivojlangan mamlakatlar ilg'or pedagogik texnologiyasi,

• pedagogik jarayonni loyihalash;

• ta'lim-tarbiya maqsadi, mazmuni va optimal metodlarini qo'llash ko'nikma va malakasini shakllantirish;

• pedagogik diagnostika qobiliyatini o'stirishdan iborat.

Jamiyat taraqqiyoti bilan bogliq ravishda ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalami qo'llash ham rivojlanib boradi.

Zamonaviy pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonining mavjud qonuniyatlariga, mamlakatimiz rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlariga, tarixiy taraqqiyot tajribalariga asoslanadi. Pedagogik

texnologiyani yaratish milliylik va umuminsoniylik tamoyillariga, insonparvarlik va demokratiya prinsiplariga, ijodkorlik va tashabbuskorlikka tayanadi.

Pedagogik texnologiya fani bo'lajak o'qituvchilarni ilmiy- metodik tayyorlashda alohida o'rin tutadi. Pedagogika nazariyasi va tarixidan mukammal bilim va malakaga ega bo'lgandan keyin pedagogik texnologiya yoki yangi pedagogik texnologiya fani o'rganiladi. Demak, pedagogik texnologiya pedagogika, pedagogik mahorat, psixologiya, matematik modellashtirish fanlari bilan o'zaro bog'liqlikda o'rganiladi,

Pedagogik texnologiya nima?

Bu haqida ko'pgina mualliflar o'z ta'riflarini berganlar. Bular:

BMT ning nufuzli idoralaridan biri bo'lgan YUNESKO ta'rificha:

Ta'lim texnologiyasi - ta'lim modellarini optimallashtirish maqsadida, inson va texnika resurslari va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda, butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini aniqlash, yaratish va qo'llash tizimidir.

V.P. Bepalko: «Nag qanday faoliyat yoki texnologiya, yoki san'at bo'lishi mumkin. San'at ichki sezgi (mtuitsiya)ga, texnologiya esa fanga asoslanadi. hammasi san'atdan boshlanadi va texnologiya bilan tugaydi va yana qaytadan boshlanadi». - degan edi.

M.Ochilov, - «Pedagogik texnologiya - tizimli, texnologik yondashuvlar asosida ta'lim shakllarini qulaylashtirish, natijasi- ni kafolatlash va obyektiv baholash uchun inson salohiyati hamda texnik vositalarning o'zaro ta'sirini inobatga olib. ta'lim maqsad- larini oydinlashtirib, o'qitish va bilim o'zlashtirish jarayonlarida qo'llaniladigan usul va metodlar majmuidir». degan ta'rifni beradi.

Pedagogik texnologiyaga professor WSaidahmedov «Pedagogik texnologiya bu o'qituvchi (tarbiyachi) tomonidan o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'qituvchilarga ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilab olmgan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayoni» - degan ta'rifni beradi.

Ta'lim texnologiyasi - oldindan belgilangan o`quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan. ta'lim jarayonida inson va texnika resurslaridan foydalanishning loyihalashtirilgan muavyan tizimi. (XTY «Multimediya umumta'lim dasturlarini rivojlantirish» markazi ta'rifi).

Keltirilgan ta'riflarni ilmiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qiladigan bo`lsak. o`zoq horijda berilgan ta'riflar bilan MDH mamlakatlari olimlari bergan ta'riflari bir-biriga yaqin kelsa-da. farqi ham ancha-licini ko`ramiz. Jumladan. YUNESKO ta'riflarida tizimli yondashuv tamovillariga alohida **urg`u** berilgan.

«Yaqinda Moskvadagi «Prosveshenie» nashriyoti «O`qituvchi mahorati» seriyasida chiqargan Yu.Chestnixning «Otkryit loveka» (Insonni kashf etish) (1991) deb nomlangan kitobiga)ko`zim tushib qoldi. U shunday yozadi: «Adabiyotni qanday o`qitish)bo`yicha eng to`g`ri va qiziqarli maslahatni men qariyb unutilayozgan o`zbek xalq latifasidan topganman. Xo`ja Nasriddin maydondagi olomon oldiga keladi va so`raydi:

- Ey, odamlar! Bilasizlarmi, men sizlarga nima aytmogchiman?

- Yo`q, yo`q, - deb javob berishdi ular.

- Eh, bilmaysizlarmi? Unda sizlar bilan gaplashib o`tirishning hojati yo`q, - jahllandi Nasriddin va jo`nab ketdi. Boshqa kun kelib, r xuddi shu savolni berdi.

- Bilamiz, bilamiz! - baqirishdi odamlar.

- Agar bilsangizlar, unda mening bu yerda nima keragim bor? - Xo`ja Nasriddin hammani ajablantirib yana jo`nab ketdi.

Uchinchi kun odamlar xuddi shu savolga o`zoq javob bermadilar va so`ngra maslahatlashib sekin ovoza qildilar: «Yarmimiz bilamiz, yarmimiz bilmaymiz». Xo`ja Nasriddin miyig`ida kulgancha eshagidan tushar ekan dedi: «Bilganlaringiz bilmaganringizga o`rgatinglar, men esa dastavval sizlarni tinglayman». («Ma`rifat» gazetasi, 2009- yil 28-yanvar. Alisher Azimovning «Yangi pedagogik texnologiya yohud Nasriddin Afandining muallimlik qilganligi xususida» maqolasidan).

Bu bir latifa. Lekin har qanday latifaning asosida katta bir haqiqat yashiringan bo`ladi.

O`zbek xalqining yosh avlodni hayotga tayyorlashda ko`p asr- lar davomida qo`llagan usul va vositalari, tadbir shakllari, o`ziga xos urf- odatlari va an`analari, ta`lim-tarbiya haqidagi g`oyalari va hayotiy tajribasi mavjud. Bu meros o`tmishda ko`plab alloma-yu donishmandlar yetishib chiqishiga asos bo`lgan. Hozirgi kunda bu merosdan ijodiy foydalanish katta ahamiyatga ega.

Ajdodlarimiz bilim o`rgatuvchi ustoz faoliyatiga katta ahamiyat berganlar. Bu pedagogik faoliyatga bo`lgan asosiy talablardan biri edi. Sharq uyg`onish davrining buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiy aqlli, dono va o`tkir fikrlaydigan kishilar to`g`risida shunday deydi: «Aqlli deb shunday kishiga aytiladiki, ular fazilatli, o`tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalami kashf va ixti- ro etishda zo`r iste`dodga ega; yomon ishlardan o`zini chetda olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deydilar»¹. Uning fikricha, «Ta`lim so`z va o`rgatish bilangina bo`ladi. Tarbiya esa amaliy ish va ta- jriba bilan o`rganishdir, ya`ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo`lgan ish- harakatga, kasb-hunarga berilgan bo`lishidir. Agar ular ish, kasb- hunarga berilgan bo`lsalar, kasb- hunarga qiziqsalar, shu qiziqish ularni butunlay kasb-hunarga jalb etsa, demak, ular kasb-hunarning chinakam oshig`i bo`ladilar»². O`zbek xalqining ulug` allomalaridan biri Abu Rayhon Beruniy asarlarida yosh avlodga bilim berishning turli yo`llari va vositalari haqida tushunchalar berilgan bo`lib, ularni mustaqil fikrlaydigan, yangilik yarata oladigan qilib tarbiyalash xususida to`xtalib o`tgan. «Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida Beruniy sxolas- tik metodlardan voz kechish, dars samaradorligini oshirish yo`llarini izlash bolalarning xotirasini rivojlantirishga fikrlashga o`rgatishini ta`kidlab o`tgan. «Maqsad gapni cho`zish emas. balki o`quvchini zeriktirmaslik, chunki doimo bir xil narsaga qaray berish malollik va sabrsizlikka olib keladi. O`quvchi fandan-fanga o4ib tursa, turli bog`larda yurganga o`xshaydi. Birini ko`rib ulgurmasdan boshqasi boshlanadi va u kishi har bir narsada

o`ziga yarasha lazzat bor deyil- ganidek ulami ko`rishga qiziqadi va ko`zdan kechirishni istaydi. Bir xil narsa charchatadi, xotiraga malol keltiradi».

O`quvchilarga tarbiya berishda hamkorlikda o`qitish ta`lim texnologiyasidan foydalanish samaradorligi

Faol usullarning eng muhim ko`rsatkichi - kollektiv faoliyat hamda bahs va munozara, suhbat uslubida o`qish hisoblanadi. Bu usul ta`limning individualligidan voz kechmaydi, balki individualizatsiyaning namoyon bo`lishi uchun xizmat qiladi. Kollektiv faoliyat asosida o`qish o`quvchilarning tez va keng bilim egallashi uchun xizmat qilishi tajribalarda isbotlangan.

Bola tajriba va bilimni muammoli ta`lim muhitini tadqiq qilish, turli maketlar, sxemalar tayyorlash, tajribalar o`tkazish, bahsli savollarga javoblar topish va umuman, xususiyan umumiyga qarab chiqish, ya`ni bilishning induktiv metodini qo`llash jarayonida "amalda bajarish" yo`li bilan o`rganishi lozim

Hamkorlikda o`qiyotganlar uchun asosiy qoidalar:

- topshiriqni birgalikda oddiy bajarish emas, balki birgalikda o`qish;
- musobaqalashish emas, balki hamkorlashish;
- birgalikda ishlashga o`rganish, o`qish va ijod;
- har doim bir-biriga yordam qilishga, muvaffaqiyat quvonchi yoki muvaffaqiyatsizlik achchig`ini birga tortishga tayyor bo`lish

Zamonoviy darsning poydevori tarbiya turlarini o`quvchiga singdirib, ularga ta`lim berishni taqazo etadi. Har qanday dars 10 ta talabga javob berishi kerak.

- Tarbiyaviy maqsadni ta`lim bilan mushtarakligi.
- Mavzu, mazmuning ilmiyligi.
- Darisni hayot bilan bog`lash.
- Kasbiy yo`nalishga qaratilganligi.
- Mavzu mazmuniga mos ta`lim vositalarini qo`llash.

- O'quvchilarning mustaqil malakalarini mustahkamlashga qaratilishi.

- Mavzu mazmuniga mos metod va usullaridan foydalanish.
- Fanlararo bog'liqligi.
- Tug'ilib o'sgan joy bilan bog'liqligini ta'minlash.
- Egologik tarbiya berish.

Hamkorlikda o'qitish g'oyasi turli mamlakatlardagi, jumladan, Amerikadagi J.Xopkins universiteti professori – R.Slavin (1990), Minnesot universiteti professori – R.Jonson, D.Jonson (1987), Koliforniya universiteti professori – Sh.Sharon (1988), tomonidan ishlab ishlab chiqilgan.

Amerika olimlari tomonidan ishlab chiqilgan hamkorlikda o'qitish, asosan o'quvchilarda DTS va fan dasturida qayd etilgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, Isroil va Evropa olimlari tomonidan tavsiya etilgan hamkorlikda o'qitish, yuqorida qayd etilganidek, ko'proq o'quvchilar tomonidan o'quv materialini qayta ishlash loyihalash faoliyatini rivojlantirish, o'quv bahsi va munozaralar o'tkazishni nazarda tutadi.

Mazkur g'oyalar bir-birini to'ldiradi, didaktik jihatdan boyitadi va bir-birini taqozo etadi.

Hamkorlikda o'qitish g'oyasi didaktikada 1970 yillarda paydo bo'lgan. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi Buyuk Britaniya, Kanada, Germaniya, Avstraliya, Niderlandiya, YAponiya, Isroil mamlakatlari ta'lim muassasalarida keng qo'llanila boshlagan.

Hamkorlikda o'qitishning asosiy g'oyasi – o'quv topshiriqlarini nafaqat birgalikda bajarish, balki hamkorlikda o'qish o'rganishdir.

Hamkorlikda o'qitish har bir o'quvchini kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, shaxs sifatida onglilik, mustaqillikni tarbiyalash, har bir o'quvchida shaxsiy qadr qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, tahsil olishda mas'uliyat hissini shakllantirishni ko'zda tutadi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi har bir o'quvchining tahlil olishdagi muvafaqqiyati guruh muvafaqqiyatiga olib kelishini anglagan holda mustaqil va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, o'quv topshiriqlarini to'liq va sifatli bajarishga o'quv materialini puxta o'zlashtirishga, o'rtoqlariga hamkor bo'lib, o'zaro yordam ubshirishga zamin tayyorlaydi.

Pedagogika fani bugungi kunda ma'lum bir yuksalish bosqichiga ko'tarilmoqda. Buning albatta, ob'ektiv sabablari mavjud. Tarbiya maqsadining har bir davrda turlicha bo'lishi ijtimoiy tuzum, mafkuraviy qarashlarning o'zgarishi bilan bog'liq. Ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy rivojlanish davomida tarbiya maqsadiga erishish jarayoniga nisbatan pedagogik yondashuvlar xam turlicha bo'lgan. Demak ta'lim-tarbiyaning maqsadi, uning amalga oshirish jarayoni nazariy va amaliy jixatdan takomillashib borishi bilan pedagogika fani zamonaviy tus ola boshlaydi. Bizning zamonaviy pedagogikamiz bugungi kunda aynan shunday xolatni boshdan kechirmoqda.

Milliy mustaqillik qo'lga kiritilishi bilan istiqbol yo'llarimiz, milliy g'oya va mafkuramiz aniq qilib belgilab olindi. Biz o'z ta'lim-tarbiyaviy maqsadimiz va vazifalarimiz, uni amalga oshirish dasturlarimizni belgilab oldik. Prezidentimizning ma'naviy mafkuraviy, barkamol avlodni voyaga etkazish borasida bir qator asarlarida ushbu yo'nalishdagi davlat siyosati ustivor masala ekanligi bir necha bor ta'kidlab o'tiladi. Bobokalonlarimizning azaliy orzulari, milliy va umumbashariy qadriyatlari, ma'naviy yodgorliklar zamonaviy pedagogikaning maqsadi va vazifalarini shakllanishiga asos bo'lmoqda. Davlatimiz tomonidan qabul qilinadigan "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da ushbu maqsad yoritib berilgan. Zero, zamonaviy pedagogikaning bosh maqsadi xam etuk, yuksak malakali, ma'naviyatli, ma'rifatli, mustaqil fikr yurita oluvchi, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashdan iboratdir.

Ko'zlangan maqsadga erishish uchun uzluksiz ta'lim tizimi tubdan islox qilinmoqda. Ta'lim jarayoniga tabaqalashtirilgan yondashuv, o'quvchilarni turli kasb-xunar kollejlari, akademik

litseylarda taxsil olishlarini ta'minlash zamonaviy pedagogika fani oldiga yuksak vazifalarni qo'ymoqda. Masalan, ushbu o'quv muassasalari uchun davlat ta'lim standartiga muvofiq keluvchi o'quv dasturlarini va darsliklar, o'quv qo'llanmalarini yaratish bugungi kun talablariga javob bermog'i lozim. Har biri turli variantlarda bo'lsagina, maqsadga to'g'ri xizmat qila oladi.

O'quv –tarbiya jarayonlarini tashkil etishda xam an'anaviy usullardan farqli o'laroq, yangicha pedagogik yondashuvlarni o'zlashtirish va ta'lim jarayonida qo'llash zamon talabidir. Milliy dasturda bu masalaga aloxida e'tibor berilgan. Albatta, ilg'or pedagogik texnologiyalar bizning fanimizga endigina kirib kelmoqda. Aslida esa ta'limga texnologik yondashuv masalasi rivojlangan demokratik xorijiy davlatlard bundan 30-yillar muqaddam paydo bo'lgan va ular bu soxada katta yutuqlarni qo'lga kiritgan.

Bugungi kunda biz pedagogika soxasidagi ilg'or texnologiyalarni kengroq va chuqurroq o'zlashtirishimiz, ularni o'z mintaqamizga mos xolda qayta ishlab chiqishimiz kerak bo'ladi. Pedagogik texnologiya tushunchasiga hozirgi kunda turlicha ta'riflar berilmoqda. Muximi shuki, pedagogik texnologiya ko'zlagan maqsadga kafolatlangan natija sifatida erishishni ifodalovchi jarayondir.

Pedagogika fani va amaliyotida turli yondashuvlar qo'llaniladi. An'anaviy yondashuv, tizimli yondashuv, texnologik yondashuv, funktsional, kompleks, faoliyatli yondashuvlar shular jumlasidandir.

An'anaviy yondashuv. Uning asosiy xususiyati-o'qituvchi ma'lum axborotni, gapirib beradi, tushuntiradi, O'quvchi esa bu bilimni xotirasida saqlaydi. "Bilim" tushunchasi xotirada saqlanadigan axborot ma'nosida tushuniladi. Tulabada bilim bor-yo'qligi imtixonda shu axborotga doir berilgan savolga yoddan bergan javobiga qarab aniqlanadi. Bunda bilim degani asosan esda qoldirishning natijasidir, u ko'pina yuzaki bo'lshi xam mumkin. Bunday bilim xotirada uzoq saqlanmaydi. O'quvchi savol berilganda eslashi ba'zan eslay olmasligi xam mumkin.

An'anaviy o'qitish usulida ta'lim maqsadi dastur talabiga binoan aniq ifodalanmaydi, O'quvchining o'zlashtirish darajasi, sifati xaqida muallim aniq tasavvurga ega bo'lmaydi.

An'anaviy ta'lim mamlakatimizning o'quv yurtlarida keng tarqalgan, uning turli jixatlari pedagogika, metodika fanlarida ishlab chiqilgan, katta tajriba to'plangan. An'anaviy ta'lim usulini takomillashtirish soxasida izlanishlar davom etayotir. Lekin uning ob'ektiv imkoniyatlari cheklangan. Mamlakatiimzda amalga oshirilayotgan ta'lim soxasidagi isloxotlar, tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan fan –texnika talablari-ta'lim usuli bilan jamityaning raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlar tayyorlash, barkamol avlodni shakllantirishga bo'lgan extiyoji o'rtasida nomutanosiblikni vujudga keltirdi. Uni ta'limda boshqa yangi yondashuvlarni qo'llash yo'li bilan xal etish lozim.

Pedagogik texnologiyaning ko'p pog'onali tarkibiy tuzilishining o'zi ham yagona tizimni tashkil etuvchi boshqarish qurilmalari ketma-ketligini yaratishni taqozo qiladi. Bu ketma-ketlikning boshlang'ich bosqichida pedagog turadi. U fanni o'zlashtirishga oid dastlabki yo'llanmalar yaratadi va zarur bo'lgan murakkab holatlarda O'quvchilarga yakka tartibda yordam ko'rsatib, o'quv jarayoni kechuviga tegishli o'zgartirishlar kiritib boradi, lekin qisman bo'lsada avtomatik qurilmalar ham ishtirok etadilar. Ular fanni o'rganishga oid yaratilgan yo'llanmalarda axborotlarni to'laroq qamrab olish va o'z imkoniyatlariga binoan zarur bo'lgan hollarda O'quvchilarga yordam ko'rsatish funktsiyasini bajaradilar. O'quv jarayonning umumlashgan jihatlarini boshqarishni pedagog, O'quvchi faoliyatining alohida qismlarini boshqarishni esa, boshqaruv qurilmalar tomonidan olib borilishi bevosita pedagog tomonidan qayta ishlanadigan axborotlar kamaytiradi. Buning natijasida o'quv jarayonini boshqarish maqbullashadi va uning samaradorligi sezilarli darajada oshadi. O'quvchilar bilish faoliyatini boshqaruvchi qurilmalar pedagog yoki uslubist tomonidan oldindan tuzilgan dastur asosida ishlaydi. Shuning uchun ham, ular faqat oldindan dasturlangan holatlarnigina nazorat

qiladi xolos. O'quv jarayonida vujudga kelgan, lekin oldindan dasturlanmagan vaziyatlarni boshqarish uchun pedagog faoliyati zarur bo'ladi. Bugungi kunda to'la-to'kis dasturlangan elektron darslik yaratilmoqda. Bunda O'quvchilar bilish faoliyatini boshqarishda - o'qituvchi, mashina yordamida (avtomatik) va ularning birgaligida hamda o'z-o'zini boshqarish turlaridan unumli foydalanishni loyihalashga e'tibor berilishi lozim.

2. O'quvchilar bilish faoliyatining har bir qismi bo'yicha o'quv jarayonini boshqarishni sikllar bo'yicha tashkil qilish. Pedagogik texnologiyaning bu tamoyili, uning birinchi tamoyili bilan bevosita bog'liq bo'lib, pedagog va boshqaruv qurilmalarining faoliyati uning to'la-to'kis amalga oshirilishini ta'minlaydi. Bunda, O'quvchilarga to'g'ridan-to'g'ri axborot uzatish bilan birga, ulardan ham axborot olish - qaytuvchan aloqa e'tiborga olinadi.

Bizga kibernetikadan ma'lumki, boshqaruv tizimining me'yorda faoliyat ko'rsatishi uchun bu mashina va ob'ekt (O'quvchi) o'rtasida to'g'ri va qaytuvchan aloqa o'rnatilishi lozim. Qaytuvchan aloqa o'qituvchiga ham, O'quvchiga ham birdek- O'quvchi uchun o'quv materialini o'zlashtirilishining borishi aniqlash, o'qituvchi uchun esa yo'l qo'yilgan xatoliklarni tahlil qilib, pedagogik jarayonga tegishli tuzatishlar kiritib borish uchun muhimdir. O'quvchi mustaqil ravishda o'z faoliyatiga tegishli tuzatishlar kiritish uchun zarur bo'lgan qaytuvchan aloqa - ichki, tuzatishlar boshqaruvchi qurilma yoki o'qituvchi tomonidan bajarilsa, tashqi qaytuvchan aloqa deb ataladi. Ichki qaytuvchan aloqa tufayli O'quvchi bilim va ko'nikmalarni ongli ravishda o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunda hech qanday tushuntirish, maslahat berish, yo'llanma berish kabilarga yo'l qo'yilmaydi.

Ma'lumki, faqat tashqi qaytuvchan aloqa o'rnatilsagina o'quv jarayonini siklik tarzda boshqarish mumkin bo'ladi, lekin u juda qimmatga tushadi. Shuning uchun ham, tashqi qaytuvchan aloqa ba'zan (so'rash va nazorat uchun), ichki-operativ (tezkor) qaytuvchan aloqa esa bevosita o'quv jarayonida amalga oshiriladi.

O'quv materialini uzatishda, uning mohiyatini ochib berish uchun alohida qadamlardan foydalanish uchinchi tamoyilni tashkil qiladi. Bu talabning bajarilishi dastur materialini barchaga tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Qadamlar bo'yicha o'qitish-o'quv dasturi materiallarini alohida, mustaqil va o'zaro bog'liq, axborotlar sig'imi jihatdan eng maqbul qism(modul)larga ajratishni anglatadi. Bunda O'quvchilarga bir qismdan ikkinchisiga o'tish uchun tavsiyalar ham berilib, ularning to'la o'zlashtirilishini e'tiborga olinadi. To'g'ridan-to'g'ri va qaytuvchan aloqalarning axborot sig'imi va bilishga oid harakatlarning bajarish qoidalari, o'rgatuvchi dasturning qadamini tashkil qiladi. O'quvchi bu qadamlarni navbatma-navbat o'zlashtirib, umumiy o'quv maqsadlariga erishish tomon harakat qiladi. Har bir o'quv qadam tarkibi o'zaro bog'liq bo'lgan quyidagi uchta qism (kadr)ni qamrab oladi: axborot, qaytuvchan aloqa operatsiyasi va nazorat. O'quv qadamlarining ketma-ketligi pedagogik texnologiyaning asosini tashkil qiladi. O'quvchilarning dastur (har bir o'quv qadami) bo'yicha faoliyati o'ta individuallashtirilgan bo'ladi.

Shuning uchun ham to'rtinchi tamoyil - o'zlashtirishning individual sur'ati deb ataladi. Bu tamoyilga amal qilish barcha O'quvchilar tomonidan (turli vaqtlarda bo'lsada) o'quv materialini to'la-to'kis o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Bunda har bir O'quvchi uchun alohida - uning ruhiy (idroki, diqqati, tafakkuri) rivojlanishi uchun eng maqbul bo'lgan o'quv materialini tanlash va uning o'ziga eng maqbul bo'lgan o'zlashtirish traektorisini belgilash zarurati tug'iladi. O'quvchining o'zlashtirish (siljish) traektoriyasini maqbullashtirish deganda, bilish faoliyatini O'quvchining o'zlashtirish imkoniyatlari - u duchor bo'ladigan qiyinchilik va xatoliklarni bartaraf qilishga mos holda o'zgarishi tushuniladi. Bular maxsus texnik qurilmalar yordamida amalga oshiriladi. Bunday vositalar har bir O'quvchi uchun eng maqbul o'qish rejimini izlab topish va uni saqlab turish bo'yicha tuzilgan dastur asosida ishlaydi.

Beshinchi tamoyil. O'quvchi shaxsining ayrim xislatlari (tezkor reaksiya, yo'nalganlik va h.k.) ni rivojlantiruvchi fanlarni o'qitishda


o'quv materialini dasturlab uzatadigan maxsus texnik vositalardan foydalanishdan iborat. Bu vositalar o'rgatuvchi mashinalar bo'lib hisoblanadi, chunki ular yordamida pedagog o'quv jarayonida o'z faoliyatini turli to'laqonlikda modellash imkoniyatiga ega bo'ladi. Maxsus texnik qurilma deyilganda, har bir o'quv qadamini - uning to'la ma'nosida (axborot, operatsiya, qaytuvchan aloqa, nazorat) amalga oshiruvchi texnik qurilmalar tushuniladi. Faqat bitta funktsiyani bajaruvchi texnik vosita shartli dasturlovchi vosita deb ataladi.

6. Bilimlarni tabaqalashgan holda mustahkamlash qoidasi har bir o'quv qadami (birligi) turli xil mazmun va jihatlarida takrorlanadi hamda puxta o'ylab tanlangan bir necha misollarda ko'rsatiladi.


7. Topshiriqlarning asta-sekin qiyinlashib borishi. Bu tamoyil tushuntirishda didaktikaning osondan-qiyinga, soddadan-murakkabga tomon yurish tamoyiliga muvofiqdir.

Yuqoridagi tamoyillar pedagogik texnologiyaning didaktik tizim sifatidagi o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi. Lekin, ular o'quv jarayonini tashkil etishga oid barcha talablarni o'zida aks ettiradi, deb bo'lmaydi. Pedagogik texnologiyada xususiy xol sifatida an'anaviy o'qitishdan hamda didaktikaning barcha tamoyillaridan ham foydalaniladi (onglilik va faollik, ko'rgazmalilik, nazariyani amaliyot bilan bog'liqligi, o'qitishda uzviylik va ketma-ketlik, o'qitishni tushunarli va bilimlarning puxta bo'lishi). Pedagogik texnologiya tamoyillari va umumdidaktik tamoyillar bir-birini to'ldiradi va boyitadi.

Masalan: Hamkorlikda o'qitish texnologiyasiga bir qator misollar keltiramiz. 2-sinf o'qish darsligidagi «Otalar so'zi - aqlning ko'zi» bo'limidagi mavzularni takrorlashda "Charxpalak metodidan foydalanamiz. Sinfni 4 ta guruhga bo'lamiz ular hamkorlikda 4 ta mavzuni o'rganadilar.



1-sinf matematika darsida O'n sonini hosil qilishda Klaster metodidan foydalanamiz.



4-sinf Odobnoma darsligidagi Navoiy va Musavvir mavzusini yoritishda “Tushunchalar tahlili “ metodidan foydalanamiz. Bu metodni ham o‘quvchilar hamkorlikda guruhlarga bo‘lib bajaradilar.

“ Tushunchalar tahlili “

Tushuncha	Mazmuni
Musavvir	Rasm chizadigan shaxs
Zargar	Tillo buyumlarni, taqinchoqlarni yasaydigan shaxs
Chevar	Tikuvchi

Mavzu

- ⦿ **Kartochka raqami**
- ⦿ **Topshiriq:** Diktantning butun matnini sherigingizga o‘qib bering.
- ⦿ **2-qadam.** Har bir gapni aytib turib yozdiring.
- ⦿ **3-qadam.** Diktantni sherigingiz aytib turishi asosida yozib oling.
- ⦿ **4-qadam.** Daftarlarni almashing va kartochkaga qaramasdan matnni o‘zaro tekshiring.
- ⦿ **5-qadam.** Xatolar ustida ish olib boring va o‘rtog‘ingiz daftariga imzo cheking.
- ⦿ **6-qadam.** Xatolar ustida ish olib boring va o‘rtog‘ingiz daftariga imzo cheking.
- ⦿ **7-qadam.** Sherik bilan kartochkani almashing va yangi sherik toping.

Xulosa

Yoshlarni o'qitish va tarbiyalash kabi murakkab masalalarni muvaffaqiyatli hal qilish ko'p jihatdan o'qituvchining g'oyaviy e'tiqodi, professional mahorati, bilimdonligi, madaniyatiga bog'liqdir. Zamonaviy pedagog o'quvchiga ta'sir etish, uning istaklarini, e'tiqodini, qiziqishi va imkoniyatlarini shakllantira bilishi kerak. Demak zamonaviy maktabga yuksak ma'lumotli, faol, izlanuvchan, ustoz – pedagog kerak.

Ta'lim-tarbiya ishlarida samarali natijalarga erishish uchun pedagog o'z ishi haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi shart. U bir necha murakkab ammo muhim quyidagi savollarga aniq javoblarni berishi lozim: Pedagogik jarayonning mohiyati nima? Bolalarga nimani va qanday o'qitish zarur? va hokazo.

Yohud texnologiyalanuvchanlik-bu pedagogik jarayonning texnikaviy va uslubiy qurollangan yoki instrumentallik darajasini belgilovchi radikal ko'rsatgichdir. Binobarin, bizning fikrimizcha, barcha o'qituvchilar pedagogik texnologiyalarni egallash shart.

Texnologik innovatsiyalarni joriy etish natijasida yangidan-yangi pedagogik metodlar va usullar, yangi ta'lim muhiti shakllanadi, tashkiliy tuzilmalar rivojlanadi. Ular o'qituvchi faoliyati xarakteriga va shu bilan butun pedagogik tizim rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu pedagogik jarayonni tashkil etish va boshqarishda o'ziga xos masalalarni o'rganish esa alohida pedagogik muammo hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. A “Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” Toshkent “O`zbekiston” 2010y 74-75 bet
2. Abduvalidov Ye. Yangi pedagogik texnologiya muammolari. \\
Til va adabiyot ta`limi, 2001, №1.
3. Boymurodova G., Sattorova X., Muslimova Sh., “O`qish darlari”
3-sinf o`qituvchilari uchun metodik qo`lanma “Sharq” nashriyoti
Toshkent-2016-yil
4. G`afforova T, “Boshlang`ich ta`limda zamonaviy pedagogik
texnologiyalar” “Tafakkur” nashriyoti Toshkent -2015-yil
5. Qosimova K “Ona tili o`qitish metodikasi” Toshkent “Nasr”
nashriyoti 2013 yil
6. G`afforova T., Nurullayeva Sh., Z.Mirzahakimova 2-sinf
“O`qish” kitobi Toshkent 2017-yil
7. G`afforova T., Eshturdiyeva Sh. 2-sinf “O`qish” kitobi Toshkent
2018-yil
8. «Boshlang`ich ta`lim» jurnali. 2019-yil 4-son.

MUNDARIJA

Muqaddima	3
Pedagogik faoliyatni texnologiyalashtirish – ijtimoiy zarurat ekanligi.....	5
Pedagogik texnologiyalar fanining maqsad va vazifalari.....	10
O‘quvchilarga tarbiya berishda hamkorlikda o‘qitish ta’lim texnologiyasidan foydalanish samaradorligi.....	15
Xulosa	25
Foydalangan adabiyotlar	26

ERGASHEVA G.A.

**O'QUVCHILARGA TARBIYA BERISHDA HAMKORLIKDA O'QITISH
TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH**

Texnik muharrir *Abdullayev F.*

Terishga berildi: 05.12.2020 y.

Bosishga ruxsat berildi: 13.01.2021 y

Ofset bosma qog'ozi. Qog'oz bichimi 60x84 ¹/₁₆.

« Cambria» garniturasini. Ofset bosma usuli.

1,75 bosma taboq

Adadi:50nusxa.

Buyurtma №10/20

Samarqand viloyati Samarqand viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi bosmaxonasida chop etildi.

Samarqand shahar, Obidinov ko'chasi 7-uy.